

TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASIDA QO‘LLANILGAN SO‘Z BIRIKMALARI TAVSIFI

Mahfuza Arabboyeva Akromjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Dilraxon Valiyeva Shuhratbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 304-guruh talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada sintaksis bo‘limi, so‘z birikmalarining tuzilishi hamda o‘zbeklarning eng qalami o‘tkir ijodkorlaridan biri Tog‘ay Murod asarlarida so‘z birikmasi turlarining qo‘llanilish o‘rinlari lingvistik tadqiq qilingan.*

***Kalit so‘zlar.** Sintaksis, so‘z birikmasi, bitishuv munosabatli so‘z birikmalari, boshqaruv munosabatli so‘z birikmalari, moslashuv munosabatli so‘z birikmalari.*

Sintaksis (*grek. syntaxys – tuzish, qurish*) ning asosi – gap haqidagi ta’limot. Gap, aslida, so‘zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so‘zning bog‘lanish qonuniyati, so‘z birikmasi ham sintaksisda o‘rganiladi. So‘z birikmalarini o‘rganish gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis atamasi grammatika atamasining o‘zi kabi ikki ma’noli:¹

1) *tilning sintaktik qurilishi;* 2) *grammatikaning tarkibiy qismi.*

Atamani ana shu ikkinchi ma’nosida qo‘llab, birinchi ma’no ifodasi uchun sintaktik qurilish atamasini ishlatamiz.² Asosiy sintaktik birliklar. So‘z birikmasi va gap – sintaksisning asosiy birliklari. Shunga ko‘ra, sintaksis ikkiga bo‘linadi:

1) *so‘z birikmasi sintaksisi;* 2) *gap sintaksisi.*

¹ Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent – 2010.

² Hamroyev M, Muhammedova D, Shodmonqulova D, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh "Ona tili" darslik Toshkent - 2007.

Soʻzning nutqda oʻzaro aloqaga kirishuvidan soʻz qoʻshilmasi vujudga keladi. Soʻz qoʻshilmasini ikki guruhga birlashtirish mumkin:

1. *gap (Osmon tip-tiniq);* 2) *soʻz birikmasi (tip-tiniq osmon).*

Soʻz oʻz maʼnoviy imkoniyatini toʻlaroq namoyon qilishi uchun boshqa bir mustaqil soʻzga ehtiyoj sezadi. Bu soʻz uning maʼnoviy ehtiyojini qondirmogʻi uchun ham maʼnoviy, ham grammatik jihatdan unga muvofiq boʻlmogʻi lozim. Demak, nutqiy soʻz birikmalari uchun quyidagi belgilarni koʻrsatish mumkin:

- a) birdan ortiq mustaqil soʻz;
- b) aʼzolarining maʼnoviy va grammatik jihatdan mosligi;
- d) tobelik;
- e) tushuncha ifodalash.

Soʻz birikmasi aʼzolari orasidagi bogʻlanish, yaʼni tobelanish uch xil: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu aloqa turining oʻziga xos xususiyati va farqi aʼzolarini biriktiruvchi koʻrsatkich yoki boshqa vositadan kelib chiqadi. Masalan, tez yurmoq, qalamni olmoq, kitobning varagʻi birikmalarida tobe soʻzning qaysi shaklda kelishi koʻpincha, uning hokim soʻziga (qalamni olmoq) bogʻliq boʻlsa, baʼzan har ikkala aʼzo bir-birining qanday shaklda boʻlishini belgilab qoʻyadi (kitobning varagʻi).

Bitishuvda birikkan soʻzlarning oʻzaro aloqasi, asosan, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasida morfologik koʻrsatkich boʻlmasa-da, tartib muhim vosita sifatida namoyon boʻladi. Bunda tobe soʻz ushbu mavqeda kelish uchun shakliy jihatdan oʻzgarmaydi.

Boshqaruv aloqasi bir tomonlama shakllangan soʻz birikmalar tarkibida amal qiladi. Faqat tobe aʼzolari birikish uchun tobelovchi qoʻshimcha olgan soʻz birikmasi boshqaruv yoʻli bilan bogʻlangan deyiladi. Bunda hokim soʻz tobe soʻzning qanday shaklda boʻlishini boshqaradi.

Moslashuv soʻz birikmasining ikki tomonlama grammatik shakllangan turi boʻlib, bunda tobe aʼzo hokim aʼzoga muvofiq egalik shaklini, hokim aʼzo tobe aʼzoga muvofiq ravishda qaratqich yoki bosh kelishik shaklini oladi. Masalan, ukamning

daftari, sizning uyingiz kabi.¹ Moslashuv atamasi har ikkala a'zo bir-birini taqozo qiluvchi morfologik vositaga egaligini anglatadi.² Quyida Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida so'z birikmalaridan foydalanish mahoratiga diqqat qilamiz.

1. Nikoh o'qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam yelkasidan igna bilan ip o'tkazib oldi.

2. Oymomo dasturxondan ko'z olmadi. Xiyol titramish barmoqlari dasturxon gullarini siladi.

3. Qoplon ro'molga non bilan mayiz tugdi. Tugunni xurjun o'ng ko'ziga soldi. Chap ko'ziga tokqaychilarni soldi.

4. Uy to'rida oppoq bir momo o'tirdi. Momo oppoq kiyimda bo'ldi. Yelkalariga tashlab olmish ro'mollarida oppoq bo'ldi. Ro'moli chetlaridan ko'rinmish sochlari-da oppoq bo'ldi. Oppoqlikda yuzlarida sochlaridan qolishmadi.

5. Izidan o'g'il qoldirib, otasi uchun motam tutdirmagan erkak, erkak bo'libdimi! Orqasidan qiz qoldirib, enasi uchun qora kiydirib, aza ochdirmagan ayol, ayol bo'libdimi!

6. Ayollar onamizni kaftlarida olib keldi. Ana shu bo'yra ustiga yotqizdi.

Xulosa. Yuqoridagi misollarda so'z birikmalarining hamma turlari qatnashgan.

Quyida esa ular guruhlariga ajratilib ko'rsatilgan:

Bitishuv – beqasam chopon, nikoh o'qilish mobaynida, titramish barmoqlar, xiyol titramish, o'ng ko'z, chap ko'z, bir momo, oppoq momo, oppoq kiyim, tashlab olmish ro'mol, ko'rinmish soch, ana shu bo'yra, so'nggi qadam, oydindagi so'z, so'nggi so'z.

Boshqaruv – chopon yopdi, yelkasiga yopdi, ip o'tkazib oldi, igna o'tkazib oldi, yelkasidan o'tkazib oldi, dasturxondan ko'z olmadi, mayiz tugdi, non tugdi, ro'molga tugdi, tugunni soldi, tokqaychilarni soldi, o'ng ko'ziga soldi, chap ko'ziga soldi, to'rida o'tirdi, yelkalariga tashlab olmish, ro'moli chetlaridan ko'rinmish, oppoqlikda qolishmadi

Moslashuv – kuyov yelkasi, baqasam yelkasi, dasturxon gullari, xurjun ko'zi, uy to'ri, ro'moli chetlari, bo'yra usti.

¹.Abdurahmonov G'. O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. №

² Tog'ay Murod "Oydinda yurgan odamlar" Toshkent – 2017.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent – 2010.
2. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. № 3
3. Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar” Toshkent – 2017.
4. Hamroyev M, Muhammedova D, Shodmonqulova D, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh "Ona tili" darslik Toshkent - 2007.